



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific  
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 2

Published: 24.02.2025  
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

### SHAYBONIYLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI VA UNING MOVAROUNNAHRDAGI HUKMRONLIGI

**Bobonazarova Madina Baxtiyor qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tarix ta'lim yo'nalishining 2-bosqich talabasi

**Uzbekistan**

[madinabobonazarova@gmail.com](mailto:madinabobonazarova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shayboniylarning hukmronlikka kelish sabablari, ularning boshqaruv tizimi, qo'shni davlatlar bilan munosabatlari va bu jarayonning umumiy ahamiyati yoritiladi. Movarounnahrda Shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi jarayoni tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** o'zbeklar, markazlashgan davlat, siyosiy jarayonlar, tarixiy jarayon, boshqaruv, tizim, Movarounnahr, Shayboniylar.

**Аннотация:** В статье рассматриваются причины прихода к власти Шейбанидов, их система управления, их отношения с соседними государствами и общее значение этого процесса. На основе исторических источников и научной литературы анализируется процесс установления правления Шейбанидов в Трансоксании.

**Ключевые слова:** узбеки, централизованное государство, политические процессы, исторический процесс, управление, система, Мавераннахр, шейбаниды.

**Abstract:** This article examines the reasons for the rise of the Shaybanids to power, their system of government, their relations with neighboring states, and the overall significance of this process. The process of establishing the Shaybanid rule in Transoxiana is analyzed based on historical sources and scientific literature.

**Keywords:** Uzbeks, centralized state, political processes, historical process, administration, system, Transoxiana, Shaybanis.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Bobonazarova, M. (2025). THE ORIGIN OF THE SHAYBANID DYNASTY AND ITS RULE IN MOVAROUNNAHR. Universal International Scientific Journal, 2(2), 100–105. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1447>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14916838>

**Google scholar:** <https://scholar.google.com/citations?user=...>

## KIRISH

Shayboniyxon Abulxayr davlatini qayta tiklashga boʻlgan bir qancha muvaffaqiyatsiz urinishlardan soʻng Oʻrta Osiyodagi temuriylar shaharlarini egallashga qaror qiladi. 1499-yilda Movarounnahrni zabt etishga kirishdi va 1500 — 1501-yillarda ularning poytaxti Samarqandni temuriylardan bosib olib, Shayboniylar davlatiga asos soldi. Butun Movarounnahrva Xuroson ustidan oʻz hokimiyatini oʻrnatdi. Shayboniyxon oʻz davlati tashkil topgan paytdan to vafotigacha qoʻshni davlatlarning koʻpchiligi bilan doimiy urushda boʻlgan. U doimiy ravishda Sharqiy Dashti Qipchoq choʻllarida qozoq koʻchmanchi lagerlarida bosqinlar uyushtirgan, Safaviylar bilan oʻz davlatini kengaytirish uchun kurashgan. 1510-yil dekabrda Muhammad Shayboniyxon Marv

yaqinida eron shohi Ismoil I Safaviy tomonidan magʻlubiyatga uchradi va oʻldiriladi. Shayboniyxonning amakisi Kuchkunjixon (hukmronligi 1510 — 1530) vafoti va uning oʻgʻli Abu Saidxon (1530 — 1533) qisqa muddat hukmronligidan soʻng Shayboniyning jiyani Ubaydullaxon (hukmronligi 1533-1540) davlat boshligʻi boʻldi. Shayboniylar temuriylarni Chingiziylar xonlari taxtini egallab oluvchilar, deb hisoblab, Xuroson va temuriylarning ikkinchi poytaxti Hirot uchun safaviylar bilan doimiy kurash olib bordilar. Shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrdagi Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tizimi tarixchilar tomonidan alohida mavzu sifatida tadqiq etilgan emas. Ayrim tarixchi va sharqshunos olimlar oʻz tadqiqotlarida mazkur mavzuga maʼlum maqsadlarda

to'xtalib o'tganlar XV asrning ikkinchi yarmida Dashti Qipchoqda ko'chmanchi feodal boylar va oliy hokimiyat o'rtasida keskin kurash bordi. Abulxayrxonning (1428-1468) o'limidan so'ng ayniqsa, bu qonli o'zaro urush yanada kuchaydi. Hokimiyat tepasiga uning nabirasi - Abulxayr Shayboniy (1451- 1510) kelganidan so'ng o'zbek feodallarining nizolari barham topdi. U ko'pchilik o'zbek urug'larini birlashtirib, temuriylarga qarshi chiqdi. XV asr oxiri, XVI asr boshlarida ko'chmanchi o'zbeklarning O'rta Osiyoning madaniy hududlariga tomon harakatlanishi avj oldi. «Nusratnoma»da o'sha davr tarixiy sharoitning qanchalik murakkabligi, Movarounnahr xalqining noroziligi kuchayishining, Samarqand, Buxoro, O'sh, Axsi, Andijon, Qarshi, Qorako'l va O'rta Osiyoning boshqa ko'plab shahar va mintaqalaridagi qo'zg'olonlarning sabablarini tushunish uchun ko'plab qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, o'zbek xalqi etnogenezi, XV-XVI asrlardagi O'rta Osiyo aholisining etnik tarkibi bilan shug'ullanayotgan etnograf ham bu kitobdan juda qiziqarli ma'lumotlar olishlari mumkin. Kitob xronologik tarzda tartblangan bo'lib, barcha turk va mo'g'ullarning afsonaviy bobosi hisoblangan O'g'izxon sulolasi tarixi «Tavorixi guzida»ning birinchi qismini egallaydi. Ikkinchi qism esa Chingizxon va

uning avlodlari tarixini, Shayboniyxonning tug'ilishidan, to Samarqand taxtiga o'tirgunicha o'tgan davrni o'z ichiga oladi. Uning 909 (1503-1504) yilgacha butun Movarounnahr hududini egallagani tarixi kitobning uchinchi qismidan joy olgan.

"Turk tarixining markazi bulgan Movarounnaxr bugungi kungacha unlab davlatlarga mezbonlik kilgan strategik xususiyatga ega bulgan mintaka xisoblanadi. Mazkur xususiyatidan kelib chiqib mintaqaning XVI asrgacha bulgan tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, xududda o'zlarining bunyodkorlik va memorchilik faoliyati bilan mashxur bulgan Qoraxoniylar, aznaviylar, Saljukiyalar, Xorazmshoxlar va Temuriylar, boskinchilik va vayronagarchilik bilan mashxur bo'lgan Koraxitoylar va M'ygullar kabi davlatlarning hukmronlik qilishganini kurishimiz mumkin. XVI asrdan boshlab esa kelib chiqishi Chingizxonga borib taqaladigan va o'zbeklar deb tariflangan Shayboniylar davlati mintaqada hukmronlik qila boshladi. Shayboniylar davlati Oltin O'rda Jo'ji ulusining o'zbek deb atalgan turkmo'g'ul qabilalaridan bazilarining Jo'jining beshinchi o'g'li Shibon naslidan bulgan Abulxayrxon boshchiligida XV asrning oxirlarida mintaqaga kelib, temuriylar hukmronligiga yakun yasashlari bilan paydo buldi va Muhammad Shayboniyxon bilan

mintaqaning yangi, hukmron va siyosiy kuchiga aylandi. Natijada Shayboniylar davlati bir asrga yaqin vaqt mobaynida Movarounnahr, Xorazm, Fargona va uning atrofidagi xududlarda hukmronlik qildi." Shayboniylar davrida fan va madaniyatning rivojlanishida mazkur sulola namoyandalarning tutgan o'rnini katta bo'lgan. Avvalo, ularning o'zlari nihoyatda o'qimishli shaxslar edilar. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkinchixon, Ubaydulloxon, Abdulazizxon kabi Shayboniylar turkiy va forsiyda she'r bitganlar. Diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo'lganlar. Muhammad Shayboniyxon yoshligida ta'limni Buxoro madrasasida olgan. Ubaydulloxonning musiqa ilmiga katta rag'batini bo'lgani, musiqiy asboblarni chalgani, nozik xusnixat egasi bo'lgani ma'lum. Shayboniylar davrida ham tarix ilmi juda rivoj topgan. "Tarixga e'tibor qaratsak, Shayboniylar asli XI asrdan boshlab Balxash ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarda qipchoq va boshqa turkiy qabilalarning hukmronlik qilgan. Botuxon 1236- yilda asos solgan Oltin O'rda davlati XIV asr boshlarida ikki qismga ajralib ketgan bo'lib, uning sharqiy qismida ayrim tarixiy manbalarda "O'zbeklar mamlakati" deb yuritilgan Oq O'rda davlati

tashkil topdi. Bu hududda Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon (1412-1468 yy.) 1428-yilda mustaqil davlatga asos soldi. Lekin urug' boshliqlarining mustaqil hukmronlikka intilishlari va 1468- yilda 132 Abulxayrxon vafoti bu davlatning inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi. XV asrning 80-yillariga kelib, Abulxayrxonning nabirasi, Budoq Sultonning o'g'li Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon bobosining davlatini qayta tiklab, Shayboniylar sulolasiga asos soldi. Buxoro xonligiga Shayboniylar sulolasi asos sogan va Buxoroni 1500-1601-yillar davomida boshqargan. Bu sulolaga Muhammad Shayboniyxon asos solgan bo'lib, XV-asr oxiri va XVI asr boshlarida toju-taxt uchun o'zaro kurashayotgan temuriy shahzodalarning o'zaro nizolari oqibatida Movarounnahrning asosiy shaharlari: Samarqand va Buxoroni osonlik bilan egallab, yangi davlatga asos soldi. Keyinchalik Movarounnahrning qolgan hududi va Xuroson ham bu davlat tarkibiga kiritildi". Bundan tashqari Muhammad Shayboniyxon davrida Binoiyning "Ajoyib ul Maxluqot" geografik asarini ham aytishimiz mumkin. XV asrning ikkinchi yarmida milliy – madaniy markazi bolgan Hirot, XVI asrga kelib o'z mavqieni yo'qotdi, avval Shayboniy, keyinchalik esa Eron shohi Safoviy hukmdorlarning chekka

shaharlaridan biriga aylanib qoldi. Bu davrga kelib madaniy va adabiy markazlik roli Samarqand va Buxoroga ko'chgandi. Bu shaharlarga faqatgina O'rta Osiyo territoriyasidangina emas, balki Eron, Afg'oniston, Hindiston shaharlaridan ham bu yoki u sohalarning ishtiyoqmandlari kelar edilar. Natijada bu o'lkada o'sha zamon madaniyati va adabiyotining turli sohalarida ancha – ko'zga ko'ringan vakillar yashab ijod etishgan.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda Shayboniylar davrida ham temuriylar zamonidagi yuksalishning ruhi so'nmagan edi. Nafaqat poytaxt shaharlar bo'lmish Samarqand va Buxoroda, balki shular bilan bir qatorda Karmana hududlarida ham bunyodkorlik ishlari davom etar, barcha viloyatlarimizda ham bizkim o'zbeklar bag'ridan yetishib chiqqan iste'dodli olimlar, shoirlar, tarixchilar, ulamolar, san'atkorlar va shu kabi madaniyat, ilm – fan, adabiyot va san'at ahli samarali va barakali faoliyat ko'rsatar edilar. Shayboniylar davrida ilm - fan madaniyat rivojlanib temuriylar qodirgan meros davom ettirildi. Hukmdorlardan Shayboniyxon, Ubaydullaxon kabi shoirlarni xalqimizning

ma'naviy merosiga qo'shgan hissasi nihoyatda katta ekanligi dalillar asosida asoslandi. Shayboniylar davlatida katta qurilish ishlari olib borildi. Shayboniyxon madrasasi, Abdurahm Sadr madrasasi, Baroqxon madrasasi, Masjidi kalon, Mir arab madrasasi, Abdullaxon, Ko'kaldosh kabi madrasalar, Buxoro darvozalari buni yaqqol misoli sifatida ko'satib berildi. "XVI asr Buxoro me'morchiligida asosiy rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha har biri taxminan uch o'n yillikni qamraydigan uchta qurilish davrini ajratish mumkin. Birinchi davr - 1500-1530-yillar, ya'ni Buxoroning Temuriylardan keyingi rivojlantirish davrini o'z ichiga olib, u asosan Ubaydullaxonning bunyodkorlik faoliyati bilan bog'liq. Unda bir tomondan, Temuriylar davri me'morchiligi ana'nalari hali kuchli bo'lgan, ikkinchi tomondan, Buxoro me'morchilik maktabining o'ziga xos mahalliy xususiyatlari shakllangan davr edi. Bu davr binolarining hali ham boy va sermehnat naqsh-qoshinli sopol, yig'ma mozaika bezatib turadi. Masalan, XVI asr boshlarida qayta qurilgan Masjidi Kalon kirish kismining naqshi, shuningdek, Masjidi Baland va Xo'ja Zayniddin binolari ham shular jumlasidandur".

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammad Solih "Shaybiniynoma". T., 1988 yil. b – 92. 43
2. "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnali. 2005 yil. №4.

3. A. Inoyatov (mustaqil tadqiqotchi)
4. Фазлуллох ибн Рўзбеҳон. Меҳмонномаи Бухоро // Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. ХVIX асрлар. – Т.: – Фан ва технология, 2014. – Б. 30- 34.
5. Зайниддин Маҳмуд Восифий. Бадоеъ улвакоъ. – Т.: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1979. – Б. 39-68.
6. Абулғозий Баҳодирхон. Шажараи турк. – Б. 110-115.
7. Биноий К. Шайбонийнома // Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. ХVI-ХIX асрлар. – Т.: – Фан ва технология, 2014. – Б. 9-11.
8. Khusanovich, T. M. O. DEVELOPING STEAM COMPETENCIES IN OLDER PRESCHOOLERS. <https://orcid.org/0009-0004-8134-3925> ORCID  
Akhmedova, V. T. (2024). LIFE STRATEGY OF UZBEK WOMEN: FAMILY AND LABOR RELATIONS. Conferencea, 2, 66-69.
9. Maxmudova, M., & Vaziraxon, A. (2022, November). TAYANCH–HARAKATI A’ZOLARI FALAJLANGAN BOLALAR LUG’ATINI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI. In Conference Zone (pp. 259-263).
11. Tursunboyevna, A. V. (2023, December). METHODS OF SPEECH SKILLS FORMATION IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS" (Vol. 2, No. 12, pp. 472-479).
12. Vazira, A. (2023). Methodical recommendations for bartending speech defects in children with paralysis of the members of the base movement. Conferencea, 3(03), 26-27.
13. Sobirkhanovna, M. M., & Vazirakhan, A. (2023). EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY. Open Access Repository, 4(3), 134-141.